XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

YANGI TOMDI QURG'ONI, +998 77 036 1823, r.sibayevtomdikengash@nv.uz

2026-yil 27-mart VII-25-36-5-75-K/26 Tomdi tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qaror ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan, Hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish sur’atlarini jadallashtirish, tuman hokimligining dolzarb muammolarga tez yechim topish borasidagi vakolatlari va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ko‘zda tutilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i Q.Xolmuminovning hisobotini tinglab, mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy isloxotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026 yil 25 martdagi DKQ 03-01/37-26-sonli qarori va xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarinining takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarorining 2.(v)-bandiga asosan Tomdi tumani hududida alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari 20 foizga oshirilsin va yig‘imlarning cheklangan stavkalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tomdi tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Q.Xolmuminov) mazkur yig‘imlar boyicha 2026-yil mahalliy byudjet tushumlarini qayta hisob-kitob qilish va tegishli o‘zgartirishlarni kiritish ishlarini amalga oshirsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Madenov), qarorning bajarilishini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmalariga yuklansin.

5. ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch oy muddatdan keyin kuchga kiradi.

Kengash raisi **TURMAXANOV JANIBEK MUSILIMOVICH**

Xalq deputatlari Tomdi tumani
Kengashining
2026-yil 27-martdagi
VII-25-36-5-75-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yigʻimlarning cheklangan stavkalari

T/r	Yigʻim turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (soʻmda)	
		Amaldagi stavka	**Kengash qaroriga asosan oshirilgan stavka**
1	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yigʻim	300 000	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yigʻim	150 000	180 000